



TIJORAT BANKLARI KREDITLARINING DAROMADLILIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI

Sheraliev Abbas

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

ORCID: 0009-0004-4686-731X

sheraliyevabbos89@gmail.com

Annotatsiya. *Xalqaro bank amaliyotida tijorat banklarining rentabelligini ta'minlash muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu nafaqat ularning moliyaviy barqarorligini saqlashga, balki bozor sharoitida raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Rentabellik darajasi yuqori bo'lgan banklar o'z moliyaviy vositachilik funksiyasini samaraliroq bajaradi, bu esa ularning iqtisodiyotdagi o'rni va rolining mustahkamlanishiga olib keladi. Shu bois, dunyoning rivojlangan g'arb davlatlari amaliyotida tijorat banklarining rentabelligini oshirish va barqarorligini ta'minlash masalalari moliya bozorida ularning raqobatbardoshligini kuchaytirishning eng ustuvor va dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida ko'riladi. Ular banklarning samarali faoliyat yuritishi, mijozlarga yuqori sifatli xizmat ko'rsatishi hamda iqtisodiy rivojlanishga munosib hissa qo'shishini ta'minlash uchun rentabellikni oshirishga katta e'tibor qaratadilar. Maqolada mamlakat tijorat banklari kreditlarining daromadliligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banki, kredit, daromad, zaxira, foiz stavkasi, inflyatsiya, qayta moliyalashtirish stavkasi.*

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ДОХОДНОСТИ КРЕДИТОВ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

Шералиев Аббос

Денауский институт предпринимательства и педагогики

Аннотация. *В международной банковской практике большое значение имеет обеспечение доходности коммерческих банков, что не только служит сохранению их финансовой устойчивости, но и повышению их конкурентоспособности в рыночных условиях. Банки с высоким уровнем доходности более эффективно выполняют свою функцию финансового посредника, что приводит к укреплению их места и роли в экономике. Поэтому в практике развитых западных стран мира вопросы повышения доходности и обеспечения устойчивости коммерческих банков считаются одними из наиболее приоритетных и актуальных направлений укрепления их конкурентоспособности на финансовом рынке. Они уделяют большое внимание повышению доходности в целях обеспечения эффективной деятельности банков, предоставления клиентам качественных услуг, достойного вклада в развитие экономики. В статье разрабатываются научные предложения, направленные на обеспечение доходности кредитов коммерческих банков страны.*

Ключевые слова: *коммерческий банк, кредит, доход, резерв, процентная ставка, инфляция, ставка рефинансирования.*

CURRENT ISSUES OF ENSURING THE PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS' LOANS

Sheraliev Abbas

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract. *In international banking practice, ensuring the profitability of commercial banks is of great importance, which not only serves to maintain their financial stability, but also to increase their competitiveness in market conditions. Banks with a high level of profitability perform their financial intermediary function more effectively, which leads to the strengthening of their place and role in the economy. Therefore, in the practice of developed Western countries of the world, the issues of increasing the profitability and ensuring the stability of commercial banks are considered one of the most priority and urgent areas of strengthening their competitiveness in the financial market. They pay great attention to increasing profitability in order to ensure the effective operation of banks, the provision of high-quality services to customers, and a worthy contribution to economic development. The article develops scientific proposals aimed at ensuring the profitability of loans of commercial banks of the country.*

Keywords: commercial bank, loan, income, reserve, interest rate, inflation, refinancing rate.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan 2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi muhim rol o'ynaydi. Mazkur Strategiyada «tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan quyidagi chora-tadbirlar bilan belgilangan:

Xususan banklarni faoliyatiga xos bo'lmagan aktivlar va funksiyalardan bosqichma-bosqich ozod etish, moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasini ishlab chiqish, 2025 yilga qadar banklar ustav kapitalining eng kam miqdorini 500 mlrd so'mgacha bosqichma-bosqich oshirish, davlat ulushi ishtirokidagi tijorat banklarining kuzatuv kengashlari tarkibiga mustaqil a'zolari jalb qilish, banklarning kredit portfeli o'sishini optimallashtirish va kreditlarning konsentratsiyalashuvi tavakkalchiliklarini kamaytirish, aholi omonatlarini himoyalash tizimini rivojlantirish, banklarga nisbatan qo'llaniladigan xalqaro tan olingan minimal standartlar va talablarni joriy qilish orqali me'yoriy va nazorat bazalarini qayta ko'rib chiqish, bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasi tavsiyalarini inobatga olgan holda normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqlash, bank xizmatlarining sifati va tezligini oshirish uchun yangi raqamli mahsulotlarni joriy qilish, masofaviy bank xizmatlari ko'rsatish ulushini oshirish maqsadida banklarning operatsion faoliyatida axborot texnologiyalari keng qo'llanilishini ta'minlash» (Farmon, 2020) singari bir qancha chora-tadbirlar belgilab berilgan. Bu esa, o'z navbatida, banklar tomonidan beriladigan kreditlarning daromadlilikini ta'minlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Adabiyotlar sharhi.

Sinkining (2017) xulosasiga ko'ra, kreditlarning daromadlilikini ta'minlashda kreditlar bo'yicha sof yo'qotishlarning jami kreditlarga nisbatan darajasining o'zgarishi muhim o'rin tutadi. Chunki, sof yo'qotishlar darajasining oshishi daromad keltirmaydigan kreditlar miqdorining ortganligidan dalolat beradi.

Usoskinning (2019) fikriga ko'ra, bankning kreditlardan oladigan daromadlari bevosita risklarni boshqarish bilan bog'liq bo'lib, ularning kredit portfeli risklarning barcha asosiy turlariga: likvidlik riski, foiz riski, kredit riskiga moyildir.

Valenseva (2013) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot natijasi ko'rsatdiki, kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxini pasayishi bilan belgilanadi. Bunda, foizli spread miqdorining umumiy quyi chegarasi

bo'lib, etarli darajadaig foizli marja hisoblanadi. Banklarda chiqimlarni pasaytirishning muhim sharti – bu bank amaliyotiga bank mahsulotlari tannarxining monitoringini joriy qilishdir.

Sotoning (2008) fikriga ko'ra, birinchidan, tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalarini pasayishi bunga qadar foyda keltirmayotgan investitsiya loyihalarini foyda keltiradigan investitsiya loyihalariga aylantiradi; ikkinchidan, banklar tomonidan ixtiyoriy jamg'armalar bilan ta'minlanmagan kreditlar hisobidan investitsiya loyihalarini moliyalashtirilishi, pirovard natijada, investitsiya loyihalarining barbod bo'lishiga va berilgan kreditlarning qaytmasligiga olib keladi.

Litvinovning (2012) fikriga ko'ra, tijorat banklari tomonidan chakana kreditlar bo'yicha foiz to'lovlarini undirishning annuitet usulini qo'llanilishi jismoniy shaxslarning kredit bo'yicha to'lov yukini oshishiga olib keladi. SHu sababli, kredit oluvchi jismoniy shaxslarga kredit bo'yicha to'lov usullarini (tabaqalashgan yoki annuitet) tanlash imkonini berilishi foiz stavkalarining rag'batlantiruvchanlik mazmunini kuchaytirish imkonini beradi.

Prof. Isakovning (2016) xulosasiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan xizmatlar sohasiga ajratilayotgan kreditlarning o'rtacha yillik foiz stavkasining o'rtacha bir foizga oshishi berilgan kreditlar daromadliligini 0,8 foizga oshishiga, berilayotgan kreditlar hajmini bir foizga oshishi kreditlar daromadlilik darajasini 1,8 foizga kamayishiga olib keladi.

Xolmamatovning (2019) tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish masalasini ilmiy asosda tadqiq qilgan va quyidagi xulosani shakllantirgan: tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida kreditlarning sifatini real baholash va ularga zaxira tashkil etish bo'yicha quyidagi mezonlar taklif etilgan: substandart kreditlar bo'yicha 1 foizdan 10 foizgacha; qoniqarsiz kreditlar bo'yicha 11 foizdan 25 foizgacha; shubhali kreditlar bo'yicha 26 foizdan 50 foizgacha; umidsiz kreditlar bo'yicha 100 foizgacha.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada tijorat banklarining rentabelligini, bank kreditlari orqali

moliyalashtirishning ahamiyati va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan. Sifatli tadqiqot usulida banklarning amaliyotlari, qonun va normativ hujjatlar, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Miqdoriy tadqiqotda esa O'zbekistonning tijorat banklaridagi muammoli kreditlar ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishi tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlar, bank hisobotlari va markaziy bank ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tijorat banklarining kreditlash faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi muhim ko'rsatkichlardan biri – bu kreditlarning daromadlilik darajasidir.

Universal tijorat banklarida kreditlar aktivlar tarkibida salmog'iga ko'ra eng yuqori o'rinni egallaganligi sababli kreditlardan olingan daromadlar ularning daromad bazasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, kreditlarning daromadlilik darajasini o'zgarishi bevosita bank kredit portfelining sifatini o'zgarishiga bog'liq. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015 yil 14 iyulda 2696-sonli «Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida»gi yo'riqnomasiga asosan tasniflangan kreditlarning besh toifasi bo'yicha ham zaxira ajratmalari shakllantiriladigan bo'ldi:

- standart kreditlar – 1 %;
- substandart kreditlar – 10 %;
- qoniqarsiz kreditlar – 25 %;
- shubhali kreditlar – 50 %;
- umidsiz kreditlar – 100 % .

1-jadval

AQSHning “Bank of America” bankida kreditlarning miqdori va daromadlilik darajasi

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlar, mlrd. AQSH dollari	909	966	1 033	1 040	1082
Berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi, %	3,7	3,0	3,7	5,5	5,6

Manba: jadval muallif tomonidan “Bank of America” bankining 2019-2023 moliyaviy yillarning yakuni bo'yicha e'lon qilingan hisobotlari (Consolidated Statement of income) ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-jadval ma'lumotlaridan yaqqol ko'rinadiki, Bank of America bankida berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning ustiga, kreditlarning miqdori 2024 yilda 2020 yilga nisbatan sezilarli darajada oshgan.

1-jadval ma'lumotlaridan aniq ko'rinadiki, Bank of America bankida berilgan kreditlarning daromadlilik darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda, ya'ni 1,9 foizli punktga o'sgan. Mazkur o'sish, berilgan kreditlardan olingan foizli daromadlarning o'sish sur'atini brutto kreditlarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lganligi bilan izohlanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali Asakabank kreditlarining daromadlilikini tahlil qilamiz.

2-jadval

AT “Asakabank” kreditlari va ularning daromadlilik, foizda


Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2020	2021	2022	2023	2024
Kreditlar, mlrd. so'm	34 122	37 685	36 741	39 213	38 113
Kreditlardan olingan foizli daromadlar, mlrd. so'm	2 136	2 398	2 824	3 728	4 323
1 so'mlik kreditga to'g'ri keladigan daromad darajasi, %	6,3	6,4	7,7	9,5	11,3

Manba: jadval Asakabankning moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Asakabankning kreditlari va kreditlardan olgan foizli daromadlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Asakabankning kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2019-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu esa, mazkur davrda bank tomonidan berilgan kreditlar miqdorining o'sish tendensiyasiga ega bo'lganligi bilan izohlanadi.

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Asakabank kreditlarining daromadlilik darajasi 2020-2024 yillarda oshishsh tendensiyasiga ega bo'lgan.

Tijorat banklari kreditlarining daromadlilikiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri – bu kreditlar bo'yicha yo'qotishlar zaxira ajratmalarining darajasi ko'rsatkichidir.



1-rasm. AT "Asakabank"da kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining brutto aktivlarga nisbatan darajasi, foizda

Manba: rasm muallif tomonidan AT Asakabankning yillik hisobotlari ma'lumotlari asosida tuzilgan.

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2020-2023 yillarda Asakabankda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi ushbu ko'rsatkichning umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) yuqori bo'lgan. Biroq, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot jarayonida quyidagi xulosalarni shakllantirdik:

*kreditlarning daromadlilikini ta'minlashda kreditlar bo'yicha sof yo'qotishlarning jami kreditlarga nisbatan darajasining o'zgarishi muhim o'rin tutadi. Chunki, sof yo'qotishlar darajasining oshishi daromad keltirmaydigan kreditlar miqdorining ortganligidan dalolat beradi;

*kreditlar bo'yicha foiz stavkasini foizli marja hisobidan pasaytirish imkoniyati bank mahsulotlari tannarxini pasayishi bilan belgilanadi. Bunda, foizli spread miqdorining umumiy quyi chegarasi bo'lib, etarli darajadagi foizli marja hisoblanadi;

*universal tijorat banklarida kreditlar aktivlar tarkibida salmog'iga ko'ra eng yuqori o'rinni egallaganligi sababli kreditlardan olingan daromadlar ularning daromad bazasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. O'z navbatida, kreditlarning daromadlilik darajasini o'zgarishi bevosita bank kredit portfelining sifatini o'zgarishiga bog'liq;

* Bank of America bankida berilgan kreditlarning miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, kreditlarning daromadlilik darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda oshgan;

*Asakabankning kreditlari va kreditlardan olgan foizli daromadlarining miqdori 2020-2024 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgani holda, kreditlardan olingan foizli daromadlarining miqdori 2019-2023 yillarda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan;

*2020-2023 yillarda Asakabankda kreditlardan ko'riladigan zararlarni qoplashga mo'ljallangan zaxira ajratmalarining darajasi ushbu ko'rsatkichning umume'tirof etilgan chegaraviy darajasidan (1,0 %) yuqori bo'lgan. Biroq, mazkur ko'rsatkichning darajasi 2024 yilda 2020 yilga nisbatan yuqori sur'atda pasaygan.

Fikrimizcha, respublikamiz tijorat banklari kreditlarining daromadlilikini ta'minlash uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Kreditlarning tannarxini innovatsiyalar asosida kamaytirish hamda kreditlarning daromadlilik va kredit riskini tavsiflovchi ko'rsatkichlar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash yo'li bilan kreditlarning daromadlilik darajasini oshirish zarur.

2. Kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning tijorat banklarining yalpi foydasi hajmidagi salmog'ining barqaror darajasini ta'minlash maqsadida, birinchidan, kreditlarning brutto aktivlar hajmidagi salmog'ining yuqori va barqaror darajasini ta'minlash kerak; ikkinchidan, kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning o'sish sur'ati bilan brutto kreditlarning o'sish sur'ati o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlash zarur; uchinchidan, innovatsion kredit mahsulotlarini banklarning kreditlash amaliyotiga joriy etish yo'li bilan kreditlardan olinadigan foizli daromadlar miqdorini ko'paytirish kerak.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmon (2020) i//QHMMB:06/205992/0581-son.

Isakov J.YA.(2016) Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda kredit samaradorligini oshirish. I.f.d. ilm. dar. ol.uch. taqd. et. diss. avtoref. – Toshkent, – B. 28.

Litvinov E.O. (2012) Kreditnoe bremya naseleniya Rossii: voprosy teorii i metodologii. Monografiya. – Volgograd, – S. 14.

O'zbekiston Respublikasi qonun(2015) hujjatlari to'plami., 28-son, 374-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2018 y., 10/18/2696-2/1120-son. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining qarori. Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida.

Sinki Dj. (2017) Finansovyy menedjment v kommercheskom banke i v industrii finansovyx uslug. Per. s angl. – M.: Alpina Pablisher, – S.496.

Uerto de Soto(2008) Xesus. Dengi, bankovskiy kredit i ekonomicheskie sikly. Per. s angl. – CHelyabinsk: Sotsium, – 666 s.

Usoskin V.M. (2019) Sovremennyy kommercheskiy bank: upravlenie i operatsii. – M.:LENAND, – S. 218.

Valenseva N.I. (2013) Senoobrazovanie na rynke bankovskix uslug//Bankovskoe delo. – Moskva, – №11. – S. 39.

Xolmamatov F.K.(2019) Tijorat banklarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish. I.f.b.f.d. diss. avtoref. – Toshkent, – B. 25.